XALQ DEPUTATLARI ANGREN SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-mart VII-9-34-10-148-K/25 Angren shahar

Angren shahri ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarning yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayonining 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Angren shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining Toshkent viloyati hokimligiga 2024-yil 4-apreldagi 03/08-3236-sonli xat orqali yuborilgan ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir hujjatlari inobatga olinsin.

3. Angren shahri ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha shahar komissiyasining 2025-yil 13-fevraldagi 1/3- sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Angren shahri ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha shahar komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan hujjatlarga asosan Angren shahri bilan chegaradosh bo‘lgan Ohangaron tumani o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yo‘l va boshqa tabiiy va sun’iy obyektlar) saqlab qolinishini Davlat kadastrlari palatasining Angren shahar filiali rahbari Sh.Baymuratov nazorat olib borishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari hamda shahar hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdig‘ini Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi RAYIMOV ALISHER ABDUMALIKOVICH

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2025-yil 26-martdagi
VII-9-34-10-148-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Angren shahri ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining
T A V S I F I

Angren shahri hamda Ohangaron tumanining chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 41°04'05,270", sharqiy uzoqlik koordinatalari 70°01'57,217").*

A dan A gacha Ohangaron tumani yerlari bilan 1 – 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha.

1 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 330 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga o‘tadi, keyin tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 121 metr masofada tomorqa devoriga o‘tib, so‘ng tomorqa devori bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 129 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 481 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga o‘tib, keyin tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 56 metr, so‘ng umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 450 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1320 metr masofada tomorqa to‘sig‘iga o‘tadi, keyin tomorqa to‘sig‘i bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 82 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 88 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 62 metr masofada avtomobi yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 465 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'34,764", sharqiy uzunlik 70°01'47,052").*

2 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 125 metr masofada Qorabov soyini kesib o‘tib, keyin janubiy yo‘nalishda 25 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 181 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 522 metr masofada Qorabov soyiga o‘tadi, keyin soyning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2058 metr masofani o‘tib, tomorqa sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°04'28,663", sharqiy uzunlik 70°01'52,602").*

3 - nuqtadan chegara chizig‘itomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 92 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 66 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 126 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 327 metr masofada tomorqa to‘sig‘iga o‘tib, keyin tomorqa to‘sig‘i bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 95 metr, so‘ng barcha burilishlarni hisobga olgan holda 222 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 82 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 104 metr masofada tomorqa to‘sig‘iga o‘tib, so‘ng sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 103 metr, so‘ngra umumuy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda

135 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 68 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 450 metr masofada tomorqa to‘sig‘iga o‘tib, so‘ngra tomorqa to‘sig‘i bo‘ylab umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 136 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 28 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, so ng yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 346 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'39,805", sharqiy uzunlik 70°02'20,559").*

4 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan tomorqa chegarasiga o‘tadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 61 metr masofani o‘tib, so‘ng tomorqa sim to‘sig‘iga o‘tadi va umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 116 metr, so‘ngra umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 58 metr masofada ariqqa o‘tib, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 220 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 27 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 42 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga o‘tib, keyin tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 115 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 69 metr, so‘ngra umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 284 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 35 metr, so‘ng umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 230 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 154 metr masofada qabriston devoriga o‘tadi, so‘ngra qabriston devori bo‘ylab yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 64 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 41°03'17,197", sharqiy uzunlik 70°02'51,814").*

5 - nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 1337 metr masofada tomorqa chegarasiga o‘tib, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 283 metr masofani o‘tib, so‘ng tomorqa sim to‘sig‘iga o‘tadi va umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 433 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, so‘ngra dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 136 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'24,532", sharqiy uzunlik 70°02'57,504").*

6 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 110 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 96 metr metr masofani o‘tib, keyin soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumuy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 313 metr masofani o‘tib, so‘ng tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 44 metr masofani o‘tib, so‘ngra dala tuproq yo‘liga tutashib, dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 98 metr, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 134 metrni o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy g‘arbiy yo‘nalishda 196 metr masofada soyga o‘tib, so‘ngra soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 677 metr masofani o‘tib, keyin tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 37 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 118 metr. so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 86 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 86 metr, so‘ng umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 330 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 134 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 99 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 105 metr masofada soyga tutashadi, so‘ngra janubiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 85 metr masofani o‘tib, dala tuproq

yo‘lida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'22,446", sharqiy uzunlik 70°03'57,858").*

7 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan qabriston devoriga tutashadi va qabriston devori bo‘ylab sharqiyyo‘nalishda 61 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 154 metr, so‘ng umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 202 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 73 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 574 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 83 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 120 metr masofada dala tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin dala tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 576 metr masofada quruq soyga tutashadi, so‘ng quruq soyning o‘ng qirg‘og‘i bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 68 metr masofani o‘tib, so‘ngra soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ngqirg‘og‘i bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 371 metr masofani o‘tib, keyin soyni kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, so‘ng tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 429 metr masofada omborxona devoriga tutashadi, so‘ngra omborxona devori bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 112 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 73 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 91 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 138 metr masofada qabriston chegarasiga tutashadi, keyin qabriston chegarasi bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 140 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 89 metr, so‘ngra umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 341 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'05,575", sharqiy uzunlik 70°04'43,477").*

8 - nuqtadan chegara chizig‘i soyni kesib o‘tadi va tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, keyin chegara bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1208 metr, so‘ng soyga tutashib soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 270 metr masofani o‘tib, so‘ngra tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 387 metr masofada soyni kesib o‘tib, keyin tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi va tomrqa sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 45 metr masofani o‘tib, tomorqa sim to‘sig‘i joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'47,036", sharqiy uzunlik 70°05'01,816").*

9 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 92 metr masofani o‘tib, keyin quruq chiziq bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 104 metr masofada dala tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, so‘ng dala tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 778 metr masofada soyni kesib o‘tadi, so‘ngra soyning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 194 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 27 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'08,996", sharqiy uzunlik 70°05'08,188").*

10- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 127 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, keyin tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 449 metr, so‘ng umumiy sharqiy yo‘nalishda 122 metr masofada adirlikga tutashadi, so‘ngra adirlik bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 522 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 203 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'40,230", sharqiy uzunlik 70°05'08,972").*

11- nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 50 metr masofada dala tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, keyin dala tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab

g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 138 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 453 metr, keyin yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 74 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 147 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'55,585", sharqiy uzunlik 70°05'17,454").*

12 - nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1844 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga o‘tib, keyin tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 164 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 155 metr masofada avtomobil yo‘liga o‘tib, so‘ngra avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 649 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'20,109", sharqiy uzunlik 70°05'09,984").*

13 - nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan bo‘g chegarasiga o‘tadi va chegara bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 68 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 194 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 73 metr masofada avtomobil yo‘liga tutashadi va avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 280 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 129 metr masofani o‘tib, tomorqa sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'39,926", sharqiy uzunlik 70°05'13,700").*

14- nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1229 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'08,458", sharqiy uzunlik 70°05'18,680").*

15- nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 734 metr masofada o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 130 metr masofani o‘tib, keyin tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi va tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab 376 metrni o‘tib, so‘ng soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 513 metrda Dukentsoy soyini kesib o‘tib, tomorqa sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'35,221", sharqiy uzunlik 70°05'45,651").*

16- nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda 565 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 771 metrda avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, avtomobil yo‘l bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'22,177", sharqiy uzunlik 70°06'12,193").*

17 - nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2754 metr masofani o‘tib, keyin Yangiobod dam olish maskani chegarasida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'25,101", sharqiy uzunlik 70°07'19,292").*

18 - nuqtadan chegara chizig‘iYangiobod dam olish maskani chegarasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 145 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 755 metr masofada soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘ibilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 173 metr masofani o‘tib, Kettasoy soy bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'38,231", sharqiy uzunlik 70°07'45,260").*

19- nuqtadan chegara chizig‘i Kettasoy soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan janubiy-g arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2633 metr masofani o‘tib,

dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'42,058", sharqiy uzunlik 70°06'43,129")*

20- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 293 metr masofada tomorqa to‘sig‘iga o‘tib, keyin tomorqa to‘sig‘i bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 137 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 257 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 119 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 75 metr masofani o‘tib, tomorqa sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°07'26,358", sharqiy uzunlik 70°06'26,727")*

21- nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1101 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 356 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'59,316", sharqiy uzunlik 70°06'17,582")*

22- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 440 metr masofada tomorqa to‘sig‘iga o‘tib, keyin tomorqa to‘sig‘i bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 30 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 249 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 56 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1028 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'39,277", sharqiy uzunlik 70°05'23,747").*

23- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1171 metr masofani o‘tib, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 188 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°06'06,091", sharqiy uzunlik 70°05'18,730").*

24- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan tomorqa sim to‘sig‘iga o‘tadi, keyin tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 401 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 95 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 93 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ngra yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 606 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lni kesib o‘tadi va soyga tutashadi, so‘ng soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan g‘arbiy yo‘nalishda 73 metr masofani o‘tib, Dukentsoy soyi bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'33,270", sharqiy uzunlik 70°05'15,608")*

25- nuqtadan chegara chizig‘i Dukentsoy soyining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 640 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 61 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°05'14,463", sharqiy uzunlik 70°05'21,303")*

26- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 622 metr masofani o‘tib, keyin soy ko‘prigidan tomorqa sim to‘sig‘iga o‘tadi va tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 517 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 150 metr masofani o‘tib, tomorqa sim to‘sig‘i bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'43,417", sharqiy uzunlik 70°05'25,245").*

27- nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda 99 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 120 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 69 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, so‘ng tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 69 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 144 metr, keyin umumiy janubiy

yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 211 metr umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 93 metr masofani o‘tib, tomorqa sim to‘sig‘ida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'31,721", sharqiy uzunlik 70°05'36,328")*

28- nuqtadan chegara chizig‘i tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 185 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 86 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 107 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 131 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 384 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 391 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 141 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'04,990", sharqiy uzunlik 70°05'45,754").*

29- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 36 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, keyin tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 39 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 156 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 54 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 103 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 135 metr masofada dala tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, so‘ngra dala tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 80 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 117 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, so‘ng tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 165 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 29 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 84 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'49,237", sharqiy uzunlik 70°05'35,035")*

30- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 108 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, keyin tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 73 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 140 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 346 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 69 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 128 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 72 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqalli janubiy yo‘nalishda 43 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 295 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidajoylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'23,521", sharqiy uzunlik 70°05'31,777").*

31- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 46 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lni kesib o‘tib soyga tutashadi va soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 112 metr masofani o‘tib, so‘ng soyni kesib o‘tadi va ariqqa tutashadi, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy yo‘nalishda 89 metr masofada tomorqa devoriga o‘tadi, keyin tomorqa devori bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 70 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 72 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 106 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 81 metr masofada tomorqa sim to‘siga tutashadi, so‘ng tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 295 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 89 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 53 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, so‘ng tomorqa sim to‘sig‘i bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 51 metr masofani o‘tib, tomorqa sim to‘sig‘ida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'09,383", sharqiy uzunlik 70°05'38,424").*

32- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan ariqqa o‘tadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 250 metr masofani o‘tib,

so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 264 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'12,391", sharqiy uzunlik 70°05'59,877").*

33- nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1271 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 188 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 449 metr masofada sim to‘siqqa tutashadi, so‘ngra sim to‘siq bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 817 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'59,253", sharqiy uzunlik 70°07'10,328").*

34- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1019 metr, keyin umumiy sharqiy yo‘nalishda 465 metr masofada yo‘lni kesib o‘tadi, so‘ng quruq chiziq bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda 944 metr masofada dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'59,667", sharqiy uzunlik 70°08'26,093").*

35- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2778 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, keyin tomorqa chegara bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 212 metr masofada soyni kesib o‘tadi, so‘ng soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1129 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, so‘ngra tomorqa chegara bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 461 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 150 metr masofada yo‘lni kesib o‘tadi, so‘ng yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 169 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'37,523", sharqiy uzunlik 70°10'32,296").*

36- nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3 metr masofada dala tuproq yo‘lidan A-373 avtomobil yo‘liga o‘tadi, keyin yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha durilishlarni hisobga olgan holda 2412 metr masofani o‘tib, A-373 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°03'38,693", sharqiy uzunlik 70°12'11,919").*

37- nuqtadan chegara chizig‘i A-373 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin avtomobil yo‘liga tutashadi va avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 300 metr masofani o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 294 metr masofani o’tib, so‘gra Angren suv ombori dambasiga tutashadi va Angren suv ombori dambasi boylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1659 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°02'44,187", sharqiy uzunlik 70°12'45,371").*

38- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 662 metr masofada bog‘ chegarasiga tutashadi, keyin chegara bo‘ylab yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 267 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutshadi, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 530 metr masofada quruq chiziq orqali umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 307 metr masofada tomorqa sim to‘sig‘iga tutashadi, so‘ngra tomorqa chegara bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 148 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1013 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 158 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°01'43,332", sharqiy uzunlik 70°13'43,631").*

39- nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan tomorqa sim toʻsigʻiga oʻtadi, keyin tomorqa sim toʻsigʻi boʻylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 776 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻliga tutashadi va dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 510 metr masofani otib, soʻng tomorqa sim toʻsigʻi boʻylab umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 112 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻliga tutashadi va dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 37 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°01'57,846", sharqiy uzunlik 70°14'22,246").*

40 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 347 metr masofani oʻtib, keyin tomorqa sim toʻsigʻiga oʻtadi va tomorqa sim toʻsigʻi boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 822 metr masofani oʻtib, soʻng dala tuproq yoʻliga tutashadi va dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 92 metr masofani oʻtib, Novgarzon soyi boʻyida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°01'32,438", sharqiy uzunlik 70°14'04,235").*

41- nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chiziq orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 81 metr masofada Novgarzon soyini kesib oʻtadi, keyin soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 827 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°01'15,929", sharqiy uzunlik 70°14'31,147").*

42- nuqtadan chegaratoʻgʻri chiziq orqali janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 51 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi,keyin tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegara boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 494 metr masofada Yangiobod dam olish maskani chegarasiga tutashadi, soʻng chegara boʻylab umumiy yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda barcha burilishlarni hisobga olib 762 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi, soʻngra avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 312 metr masofada tomorqa chegarasiga oʻtib janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 14 metr, keyin umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 68 metr masofada avtomobil yoʻliga oʻtadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 325 metr masofada avtomobil yoʻl boʻyida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°01'46,766", sharqiy uzunlik 70°13'24,883").*

43- nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 681 metr masofada soyga oʻtadi, keyin soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 506 metr masofani oʻtib, soʻng dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib toʻgri chiziq orqali umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barchi burilishlarni hisobga olgan holda 215 metr, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 172 metr masofani oʻtib, keyin soyga tutashadi va soyning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1027 metr masofani oʻtib, soʻng tomorqa sim toʻsigʻiga tutashadi va tomorqa sim toʻsigʻi boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 123 metr, soʻngra janubiy yoʻnalishda 214 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 155 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 369 metr masofada dala tomorqa sim toʻsigʻiga tutashadi va dala tomorqa chegarasu boʻylab janubiy yoʻnalishda 118 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 123 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 248 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°00'55,894", sharqiy uzunlik 70°12'00,161").*

44 - nuqtadan chegara chizigʻi quruq chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 310 metr masofani oʻtib, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 867 metr, soʻng janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 732 metr masofani oʻtib, soʻngra toʻgʻri

